

2019 yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:


6162,9 mlrd.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi	100,5% sanoat ishlab chiqarish indeksi
1013,4 mlrd.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	108,4% o'sish sur'ati
22,0% sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi	16,4% istemol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan 6162,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 100,5%. ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 88,4% tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 7,3% tashkil etti.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi






Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 200,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3% ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'ycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,6% ga, chaqiq tosh 3,3 martaga oshganligini kuzatish mumkun. Gaz kondensati 10,9% ga, tabiiy gaz 4,2% ga pa'sayishi kuzatildi.



Yanvar-iyun oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
85024,0	Ohoktosh, t 	82868,0	102,6 ↑
83,81	Gaz kondensati, ming t. 	94,09	89,1 ↓
3074,2	Tabiiy gaz, mln.kub.m 	3207,5	95,8 ↓


Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).



2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5449,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88,4% ni tashkil etdi.








Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9% (2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 1,2%) ni o'rta-yuqori texnologiyali 65,6% (74,5%), o'rta-quyi texnologiyali 6,5% (3,8%) va quyi texnologiyali 26,0% (20,5%) tashkil etdi.





2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bóyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, yumshoq bug'doy uni 4,7% ga, bug'doy noni 9,2% ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 5,9% ga va aroq 0,5% ga, tozalangan guruch 5,5% ga oshganligini va paxta tolasi, makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yilda ishlab chiqarilgan	ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlar	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	Paxta tolasi, t		
24916,0		30663,6	81,3 ↓
	O'simlik yog'i (tozalangan), t		
7224,2		7987,5	90,4 ↓
	Tozalangan guruch, t		
2887,3		2738,1	105,5 ↑
	Yumshoq bug'doy uni, t		
40579,3		38742,5	104,7 ↑
	Bug'doy noni, t		
1329,7		1218,0	109,2 ↑
	Makaron mahsuloti, t		
675,1		1469,2	45,9 ↓
	Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t		
23424,2		22118,0	105,9 ↑

1913,8	Aroq, ming.l. 100% spirt 	1904,2	100,5 ↑
96,0	Karbonat dinatriya, ming.t. 	93,7	102,5 ↑
183566,4	Polietilen, t. 	196200,5	93,6 ↓
47796,0	Polipropilen, t. 	50767,1	94,1 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 448,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining(7,3% ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4% ga, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 0,6% ga kamayishi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 11,3% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 9,9% ga pasayganligin va suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 13,4% ga, xafsiz bo'lgan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 3,2 martaga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1013,4 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,4% ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,4% ni tashkil etdi


2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'mda)



Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	<i>Mlrd.so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, %</i>	<i>2018yil yanvar- iyunga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1013,4	100	108,4
Nukus sh.	328,2	32,4	109,6
Amudaryo	68,8	6,8	107,1
Beruniy	82,0	8,1	113,3
Qonliko'l	15,8	1,6	100,8
Qarao'zak	21,7	2,1	100,7
Kegayli	25,8	2,6	108,5
Qo'ng'iro't	66,3	6,5	108,6
Mo'ynoq	9,7	1,0	104,5
Nukus	18,8	1,9	108,3
Taxiatosh	55,8	5,5	125,8
Taxtako'pir	11,4	1,1	108,8
To'rtko'l	83,2	8,2	111,7
Xo'jayli	113,7	11,2	100,2
Chimboy	39,1	3,9	103,3
Shumanay	19,7	1,9	117,8
Ellikqal'a	53,2	5,2	101,0

Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3700,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumi ishlab chiqarishdagi ulushi 60,0 % tashkil etti.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmdagi ulishi, %




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 66,4% dan ulushini), Taxiatoş (7,0%), Xo'jayli (3,7%), Amudaryo (3,3%), Mo'ynoq (2,6%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulushi Taxtako'pir (0,2%), Shumanay (0,4%), Nukus (0,5%) va Chimboy (1,7%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajminig eng katta qismi Nukus shahar (jami iste'mol tovarlari hajmining 32,4 %), Xo'jayli (11,2%), To'rtko'l (8,2%), Beruniy (8,1%), Amudaryo (6,8%), Qo'ng'iro't (6,5%), Taxiatoş (5,5%), tumanlarida ishlab chiqarildi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish va xalq istemol mollari ishlab chiqarish (% da)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi tahlili Nukus shahrida (12953,2 ming.so'm), Taxiato'sh (5879,5 ming.so'm), Mo'ynoq (5157,8 ming.so'm) tumanlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (3285,4 ming.so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 540,2 ming.so'm bulgan holda Nukus shahrida 1038,2 ming.so'mni, Xo'jayli tumanida 935,8 ming so'mni, Taxiato'sh tumanida 763,9 ming.so'mni tashkil qildi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va
istemol tovarlar ishlab chiqarishi, (ming.so'mda)
(2019 yil yanvar-iyun oylari ushin)**




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1355,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 22,0% tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100%), Qarao'zak (99,99%), Taxtako'pir (99,0%), Chimboy (92,8%) Nukus (86,9%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (8,7%), Mo'ynoq (11,4%), Taxiato'sh (14,7%) va Kegayli (33,2%) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyastirish.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyastirish dasturining amalga oshirilishi respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z tasirini kursatti, mazkur dastur doirasida 2058,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib,

171,4 mln. AQSH dollari mig'dorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

Mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 foyizga kamayishi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyastirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari




2019 yilning yanvar-iyun oylarida mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmining 99,6 foizi Nukus sh. (2049,5 mlrd.so'm) korxonalariga to'g'ri keladi.

Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.

Bugungi kunda respublikada 2179 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 474 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarning qariyb 54,6% Nukus shahri, Beruniy, Amudaryo, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 iyul holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik



Q.R Statistika boshqarmasi
sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 222-75-87